SHE’R SUHBAT DEMAKDIR-YOXUD SHODMONQUL SALOM SHE’RIYATI

Alimov Parda
Termiz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti
kafedrasi professori

Annotatsiya: Ushbu maqolada “she’r suhbat demakdir” degan estetik qarash asosida Shodmonqul Salom she’riyatining badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Shoir ijodida she’rning o‘quvchi bilan samimiy muloqot vositasiga aylanishi, ichki kechinmalar, ruhiy holatlar va hayotiy kuzatishlarning sodda, ammo ta’sirchan ifodasi yoritiladi. Shuningdek, Shodmonqul Salom she’rlarida milliy ruh, zamonaviy tafakkur va individual uslub uyg‘unligi ko‘rib chiqilib, she’riyatning dialogik tabiati ochib beriladi. Maqolada shoirning poetik mahorati, obrazlar tizimi hamda til va uslub o‘ziga xosligi ilmiy-estetik jihatdan baholanadi.

Kalit so‘zlar: she’r, suhbat, Shodmonqul Salom, she’riyat, badiiy ifoda, lirik kechinma, poetik mahorat, milliy ruh, zamonaviylik, estetik talqin.

Аннотация: В данной статье анализируются художественные особенности поэзии Шодмонкула Салома на основе эстетического взгляда, согласно которому «поэзия — это диалог». Творчество поэта подчеркивает превращение поэзии в средство искреннего общения с читателем, простое, но впечатляющее выражение внутренних переживаний, душевных состояний и жизненных наблюдений. Также исследуется гармония национального духа, современного мышления и индивидуального стиля в стихах Шодмонкула Салома, раскрывается диалогический характер поэзии. В статье оценивается

поэтическое мастерство поэта, система образов, уникальность языка и стиля с научно-эстетической точки зрения.

Ключевые слова: стихотворение, диалог, Шодмонкул Салом, поэзия, художественное выражение, лирический опыт, поэтическое мастерство, национальный дух, современность, эстетическая интерпретация.

Abstract: This article analyzes the artistic features of Shodmonqul Salom's poetry based on the aesthetic view that "poetry means conversation." The poet's work highlights the transformation of poetry into a means of sincere communication with the reader, the simple but impressive expression of inner experiences, mental states and life observations. Also, the harmony of the national spirit, modern thinking and individual style in Shodmonqul Salom's poems is examined, and the dialogical nature of poetry is revealed. The article evaluates the poet's poetic skill, system of images, and the uniqueness of language and style from a scientific and aesthetic perspective.

Keywords: poem, conversation, Shodmonqul Salom, poetry, artistic expression, lyrical experience, poetic skill, national spirit, modernity, aesthetic interpretation.

Inson yaratilgandan buyon dard unga hamroh, yo‘ldosh. Dard insonni erta ulg‘aytiradi, ne-ne sinovlarga jazm etadi.Dard ba’zan og‘riqqa aylanadi.

Dard mehmon bo‘lib emas, balki nola bo‘lib kiradi. Lekin muhabbat dardi minglab yillar fig‘oni, ushalmagan tuyg‘ular sadosi bo‘lib yangraydi. Ana shu dardni kimdir shovqin qilib, kimdir mayna qilib kuylaydi. Ba’zilar uni pinhona tutishadi, qalb to‘rida joylashadi. She’rning quyidagi misralarida iltijo, sog‘inch ufurib turadi:

Shu yomg‘irlar kecha yog‘sa bo‘lmasmidi,
Intiq yo‘lning halqoblari to‘lmasmidi?

Men sog‘inchning ko‘zlarini she’rga soldim,

Shu she’rlarni o‘zing aytsang bo‘lmasmidi?

Shoir shu o‘rinda chiroyli tasvir topgan. “Men sog‘inchning ko‘zlarini she’rga soldim” misralar voqelikni qabartirish, bo‘rttirish, ifodani yanada kuchaytirishdir. Ma’shuqaga mehr-muhabbatni yuzaga chiqadi, sog‘inchning egasi kim degan savolga shunchaki javob emas, “Yuragimni qo‘lga o‘rgatib xo‘rlagan nozanin chiqadi” degan she’riy nido bor.

Kim edi, qo‘lin siltab chorlayotgan,

Namozshomda devor osha bo‘ylayotgan,

Yuragimni qo‘lga o‘rgatib xo‘rlayotgan,

Azoblarin Parvardigor bilmasmidi?

Xushxabarlar o‘z vaqtida kelganda,

Umrim – qadah maromiga to‘lganda,

Bu savollar o‘z vaqtida kelganida,

Manzurajon, o‘g‘ilginang o‘lmasmidi?

Kabi hisobsiz savollar oshiqni erishmagan visol dardini yangilaydi, o‘z-o‘zini oqlashga o‘tadi.

Keyingi she’riy ifoda o‘ta ta’sirchan original ruh kashf etadi Shu o‘rinda shoir ifoda san’ati mahoratini ishga soladi:

Bahorlarim bahorini sarg‘aytirgan,

Tashriflarim ko‘zlarini qabartirgan.

O‘z yuzini shapaloqday qizartirgan,

Shul chehralar quvonchdan bir kulmasmidi?

Ma’shuqani ko‘ngil osmonidagi sirlariga intilgan shoir bo‘lmasmidi, bilmasmidi, o‘lmasmidi, kulmasmidi, bo‘lmasmidi kabi haroratli so‘zlarni qo‘llab ham dil rozini ham, istagini ham, dil muddaosini ham yuzaga chiqargan.

Kechalarim shaloplatib kechib o‘tdim,

Go‘daklaring tushlaridan uchib o‘tdim,
Bor umrimda bir nidodan qochib o‘tdim,
Bunday bo‘lsa, keyin unday bo‘lmasmidi?
Shu yomg‘irlar kecha yog‘sa bo‘lmasmidi

Satrlarida majoziy ma’no yuklangan. Ba’zan yomg‘irni yog‘ishini Yaratgandan tilaymiz. Yomg‘ir giyoh-baraka olib keladi. Qalblarni g‘ubor, changlardan forig‘ etadi. Lekin shoirning yomg‘iri kecha emas, bugun yog‘adi. Kechikkan yomg‘ir esa kechikkan sevgining nola va hajrlaridir.

Hayotda hamma narsaning yashash tarzi, hayotiy ritmi bor. Yashashda ma’lum bir andaza va qoliplar bor. Abadiy yashab qoladigan narsa jism, hodisaning o‘zi yo‘q.

Shoirning “Asta-asta oqaradi tong” deb boshlangan she’rida ana shunga alohida e’tibor qaratdi. Bu yerda adib takror san’atidan mohirona foydalangan hamda ma’noning tub mohiyatiga diqqatni jamlaydi. Shodmonqul Salomning hayotiy falsafasi yuzaga chiqadi, diqqatni qarating.

Asta-asta oqaradi tong, asta-asta bo‘ylaydi quyosh, asta-asta sochin yig‘ar xayol, asta-asta ko‘tarilar bosh, asta-asta tashlanar qadam, asta-asta boshlanar kurash, asta-asta xo‘rsinar odam, asta-asta charchamish yashash, asta-asta siltanadi qo‘l, asta-asta qatilar yurak, asta-asta uydan qochar yo‘l, asta-sekin mast bo‘lar erkak, asta-asta zulfga oq inar, asta-sekin yoqalari xo‘l, oy yuzi, tongday oqarar, yanog‘ida muzlab qolmish sel, asta-asta esnaydi yurak, asta-asta zo‘rayar shamol, izoh olmas, jim yurar erkak, asta-sekin baxtsizdir ayol, asta-asta.

Shodmonqul bir-biriga ulangan, bog‘lanish narsa, hodisa, jismlarning dialektik birligini izoxlaydi, she’riy rang-baranglik bera olgan.

Shoir fikricha:

Izohlamas, jim yurar erkak,
Asta-asta baxtsizdir ayol
Asta-asta.

Ayolning baxtsizligi olam baxtsizligi nishonasi. Agar ayolni baxtli qila olmasak, unda bizga baxt, ro‘shnolik nasib etmaydi. She’rda iddao shu fikrga borib taqaladi:

Mustaqillik yillarida adabiyotga munosabat o‘zgardi. Yozuvchilar adabiyotga yangi ruh, ohang, o‘ziga xos davr zavqini olib kirdilar. Bu davrda she’rga munosabat butkul o‘zgarib ketdi. Hammabop shoirona so‘zlar, shovqinli fikrlar, dabdabasi chiqqan she’riy shakllar o‘z umrini yashab bo‘lgan edi. Endi uyg‘oq qalblarni ruhlantiruvchi va ilhomlantiruvchi haq so‘zning qudrati oshib ketdi. Chunki uzoq vaqt o‘z fikridan judo etilgan, haq so‘z toptalgan bir davrda erkin qalb shijoati, tovlanishlari, tasviri kerak edi. Shodmonqul Salom erkin, sog‘lom she’riyatga intilmoqda. Uning samimiy, nozik satrlari xalq diliga kirib bordi. U allaqachon o‘z muxlislari e’tiborini qozona olgan va siyohi qurimagan satrlarini she’riyat shaydolari orziqib kutishadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shodmonqul Salom. *Saylanma she’rlar to‘plami*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2018.
2. Ibrohim G‘afurov. *Adabiyot va tafakkur*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2009.
3. Ozod Sharafiddinov. *Ijodni anglash baxti*. – Toshkent: Sharq, 2004.
4. Naim Karimov. *XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010.
5. Abdulla Oripov. *Tanlangan asarlar*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000.
6. Erkin Vohidov. *Saylanma*. – Toshkent: Sharq, 2001.
7. Zamonaviy o‘zbek she’riyati masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2015.
8. Mukhtarova, M. S., Namozova, S. B., & Mardonova, L. U. (2023). A Lyrical View of History. *Journal of Law and Sustainable Development*, *11*(12), e2676.